

O'zbekiston Respublikasida iste'mol narxlari indeksi (INI)

2026-yil aprel oyi

Ma'lumotlar jadvaliga havolalar:

[MIIT – 2018 bo'limlari bo'yicha iste'mol narxlari indeksi](#)

[O'zbekiston Respublikasi bo'yicha barcha tovar va xizmatlar narxlari indeksi, o'tgan oyga nisbatan](#)

- I. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yig'ma INI
- II. Hududlar kesimida yig'ma INI
- III. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy guruhlardagi INI
- IV. Yig'ma INI o'zgarishiga MIIT – 2018 bo'limlarining ta'sir tuzilmasi
- V. Geometrik Yang formulasi bo'yicha INI (tahliliy maqsadlar uchun)
- VI. Uslubiy ma'lumotlar
- VII. Foydali havolalar


I. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yig'ma INI

2026-yil aprel oyida yig'ma INI oylik ko'rsatkichi **100,6 %**, 2025-yilning dekabriga nisbatan **102,5 %**, yillik nisbatda **107,0 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2025 yil aprel oyida yig'ma INI oylik ko'rsatkichi **100,7 %**, 2024-yilning dekabriga nisbatan **102,9 %**, yillik nisbatda **110,1 %** ni tashkil etgan.

Meva va sabzavot mahsulotlari narxlarining o'zgarishini hisobga olmaganda, oylik INI ko'rsatkichi **100,6 %** (2025 yil aprel oyida **100,7 %**), 2026-yilning yanvar-aprel oylarida **102,1 %** (2025 yil yanvar-aprel oylarida **102,3 %**), yillik nisbatda **107,6 %** (2025-yil aprel oyida **112,3 %**)ni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha INI dinamikasi, o'sish (pasayish) sur'ati %da



Quyida MIIT – 2018 bo'limlari bo'yicha 2026 yilning aprel oyida asosiy tovarlar va xizmatlar narxlarining o'zgarishlari keltirilgan:

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar bo'limi

Oy davomida asosiy oziq-ovqat mahsulotlaridan qo'y go'shti – **3,7 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **+20,3 %**)ga, suyakli mol go'shti – **3,2 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **+16,6 %**)ga, suyaksiz mol go'shti – **3,2 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **+17,3 %**)ga, go'sht qiymasi – **2,9 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **+14,1 %**)ga, shakar – **2,2 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **+2,1 %**)ga, tirik va sovutilgan baliq – **2,0 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **+6,2 %**)ga, o'simlik yog'i – o'rtacha **0,8 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **+10,6 %**)ga va sut narxlari o'rtacha **0,4 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **+5,6 %**)ga o'sishi kuzatildi.

Ma'lumot uchun: 2026-yil aprel oyida import (bir kg uchun 5 000 so'mdan 15 000 so'mgacha bo'lgan oraliqda o'sish) va mahalliy (bir kg uchun 2 000 so'mdan 5 000 so'mgacha bo'lgan oraliqda o'sish) mol go'shti narxlarida o'zgarish kuzatildi.

Oy davomida asosan tuxum – **3,6 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **+16,7 %**)ga, guruch va guruch oqshog'i – **1,1 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **-12,8 %**)ga, parranda go'shti – **1,2-1,3 %** oralig'ida (2025-yil aprel oyiga nisbatan **+4,6 – +5,7 %**) narxlarining pasayishi kuzatildi.

Asosiy meva-sabzavot mahsulotlaridan bulg'or qalampiri – **10,3 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **-4,0 %**)ga, kartoshka – **6,5 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **+18,9 %**)ga, olma – **4,5 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **+23,3 %**)ga, sabzi – **3,2 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **-10,4 %**)ga narxlari oshdi. Bodring – **26,1 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **-8,9 %**)ga, ko'katlar – **3,3 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **-4,5 %**)ga, piyoz – **2,7 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **-21,5 %**)ga, pomidor – **2,4 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **-7,7 %**)ga, karam – **2,4 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **-9,8 %**)ga, banan narxlari – **1,3 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **+3,9 %**)ga pasaydi.

Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari bo'limi

Joriy yilning aprel oyida asosiy kommunal xizmatlardan faqat maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlari uchun tariflar oshishi qayd etildi. Respublika bo'yicha ushbu xizmat turi o'rtacha **2,4 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **+28,0 %**)ga qimmatlashdi.

Oy davomida turar joy binolariga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash uchun materiallar o'rtacha **0,7 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **+7,1 %**)ga, uy-joylarni ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadigan mutaxassislar xizmatlari o'rtacha **0,3 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **+5,9 %**)ga qimmatlashdi. Uy-joy ijarasi to'lovi **0,6 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **+2,5 %**)ga oshdi. 2026-yil aprel oyida toshko'mirning (bozor) narxlari bir oyda **0,7 %**ga pasaygani qayd etildi.

Sog'liqni saqlash xizmatlari bo'limi

Sog'liqni saqlash sohasida oy davomida diagnostik vizualizatsiya va tibbiy laboratoriyalar xizmatlari o'rtacha **0,6 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **+7,7 %**)ga, ko'z uchun yordamchi mahsulotlar **0,6 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **+3,1 %**)ga, stomatologik xizmatlar **0,3 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **+4,4 %**)ga qimmatlashdi.

Transport bo'limi

Oy davomida benzin uchun o'rtacha iste'mol narxlari darajasi **1,4 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **+11,2 %**)ga oshdi. Bunda, benzinning AI-92 markasi – **1,6 %**ga, AI-95 markasi – **0,9 %**ga, AI-98 va AI-100 markalari esa – **0,2 %**ga qimmatlashdi. Propanning narxi oy davomida **2,8 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **+16,7 %**)ga arzonlashib, 1 litr uchun yuqori narx chegarasi **7 000** so'mni tashkil etdi. 2026-yil aprel oyida metan narxi **0,7 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **+27,9 %**)ga oshishi kuzatildi. Avtoturargohlar xizmati **0,8 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **+11,8 %**)ga qimmatlashdi.

Yo'lovchi tashish transporti xizmatlaridan quyidagi turlari bo'yicha narxlar va tariflarning oshishi qayd etildi: xalqaro yo'nalishlar bo'yicha aviaqatnovlar – **2,6 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **-7,9 %**)ga, ichki yo'nalishlar bo'yicha aviaqatnovlar – **2,3 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **-13,1 %**)ga, shahar avtobuslarida yo'l haqi – **1,6 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **+16,4 %**)ga, uzoq masofaga qatnovchi poyezdlar – **1,4 %** (2025-yil aprel oyiga nisbatan **+13,6 %**)ga oshdi.

Tovarlarni tashish xizmatlaridan tayyor ovqat yetkazib berish xizmatlari narxlarining o'sishi qayd etildi (bir oyda **+0,8 %**, 2025-yil aprel oyiga nisbatan **+4,5 %**).

Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar bo'limi

2026-yil aprel oyida bo'limdagi tovarlar va xizmatlar uchun qisqa muddatli INI yuqori chegarasi **102,9 %** (shampunlar)ni, quyi chegarasi **99,6 %** (qo'l soatlari, cho'ntak soatlari va sekundomerlar)ni tashkil etdi.

Yillik INI bo'yicha ko'rsatkichlar chegarasi **127,6 %**dan (qimmatbaho metallardan yasalgan nikoh uzuklari) – **100,1 %**gacha (yosh bolalar tagliklari) oralig'ida kuzatildi.

Boshqa bo'limlarda tovar va xizmat narxlarini o'zgarishi ta'siri yuqori bo'lmadi yoki yig'ma ko'rsatkichga sezilarli darajada ta'sir qilmadi.

2026-yilning aprel oyida MIIT – 2018 bo'limlari bo'yicha INI, % da

Bo'lim nomi	2026-yilning martiga nisbatan	2025-yilning dekabriga nisbatan	2025-yilning apreliga nisbatan
I. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar	100,9	104,0	105,7
II. Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari	101,7	102,6	106,5
III. Kiyimlar va poyabzallar	100,2	100,9	102,6
IV. Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari	100,4	101,3	117,2
V. Uy-ro'zg'or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko'rsatish	100,2	101,2	102,3
VI. Sog'liqni saqlash	100,2	101,9	104,4
VII. Transport	100,5	101,1	109,7
VIII. Axborot va aloqa	100,0	101,2	106,5
IX. Dam olish, sport va madaniyat	100,2	101,1	104,7
X. Ta'lim sohasidagi xizmatlar	100,0	100,3	101,7
XI. Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	101,3	103,4	108,6
XII. Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar	101,0	142,4	141,7
XIII. Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar	100,8	103,0	107,7

II. Hududlar kesimida yig'ma INI

Hududlar kesimida qisqa muddatli va yillik INI bo'yicha o'rtacha respublika ko'rsatkichidan katta farq qayd etilmadi.

2026-yilning aprel oyida hududlar bo'yicha INI, % da


Hududlar	2026-yilning martiga nisbatan	2025-yilning dekabriga nisbatan	2025-yilning apreliga nisbatan
Qoraqalpog'iston Respublikasi	100,5	102,4	107,4
viloyatlar:			
Andijon	100,6	102,5	106,9
Buxoro	100,5	102,3	106,9
Jizzax	100,5	102,4	106,3
Qashqadaryo	100,7	102,9	107,1
Navoiy	100,5	102,8	107,0
Namangan	100,6	102,5	107,0
Samarqand	100,6	102,6	106,8
Surxondaryo	100,6	102,5	106,9
Sirdaryo	100,5	102,3	107,2
Toshkent	100,8	102,7	107,0
Farg'ona	100,6	102,4	107,1
Xorazm	100,5	102,4	107,3
Toshkent sh.	100,6	102,6	106,9

IV. Yig'ma INI o'zgarishiga MIIT – 2018 bo'limlarining ta'sir tuzilmasi

2026-yilning aprel oyidagi qisqa muddatli yig'ma ko'rsatkichga "Oziq-ovqat va spirtsiz ichimliklar" yuqori ta'sir ko'rsatib, INI ko'rsatkichini **0,37 f.d.**ga (umumiy o'sishning **62,7 %** i) ko'tardi. "Transport" bo'limidagi narx o'zgarishlari oylik yig'ma ko'rsatkichni jami hisobda **0,05 f.d.**ga oshirdi. "Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari" va "Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar" bo'limlarida narxlarning o'sishi hisobiga yig'ma ko'rsatkich jami hisobda **0,08 f.d.**ga yuqori bo'ldi. Qolgan bo'limlarning ta'siri sezilarli darajada bo'lmadi (umumiy hisobda **+0,09 f.d.**).

MIIT – 2018 bo'limlarining 2026-yil aprel oyida yig'ma INI o'zgarishiga ta'siri, f.d.


o'tgan oyga nisbatan



Jami ta'siri

+0,59 f.d.

o'tgan yilning dekabriga nisbatan



Jami ta'siri

+2,53 f.d.

2026-yil yanvar–aprel oyida yig'ma INI o'sishiga "Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar" bo'limidagi narxlar o'zgarishi eng katta hissa qo'shdi (**+1,56 f.d.**, yoki jami ta'sirning **61,7 %**). Boshqa bo'limlarning umumiy hissasi **0,97 f.d.**ni tashkil etdi.

V. Geometrik Yang formulasi bo'yicha INI (tahliliy maqsadlar uchun)

2026-yil yanvaroyidan boshlab Milliy statistika qo'mitasi geometrik Yang formulasi asosida qo'shimcha INI shakllantirib kelmoqda. **Mazkur indeks faqat tahliliy maqsadlarda qo'llaniladi va yuqorida e'lon qilingan asosiy INIning o'rnini bosmaydi yoki unga muqobil hisoblanmaydi** (batafsil ma'lumot "Uslubiy ma'lumotlar" bo'limining VI bandida keltirilgan).

2026-yil aprel oyida geometrik Yang formulasi bo'yicha oylik INI **100,5** %ni, 2025-yil dekabr nisbatan **102,3** %ni tashkil etdi.

2026-yil aprel oyi uchun geometrik Yang formulasi bo'yicha INI, %da (TAHLILIY MAQSADLAR UCHUN)

Bo'lim nomi	2026-yilning martiga nisbatan	2025-yilning dekabr nisbatan
I. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar	100,7	103,5
II. Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari	101,7	102,6
III. Kiyimlar va poyabzallar	100,2	100,9
IV. Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari	100,3	101,3
V. Uy-ro'zg'or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko'rsatish	100,2	101,2
VI. Sog'liqni saqlash	100,2	101,9
VII. Transport	100,4	101,0
VIII. Axborot va aloqa	100,0	101,2
IX. Dam olish, sport va madaniyat	100,2	101,1
X. Ta'lim sohasidagi xizmatlar	100,0	100,3
XI. Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	101,3	103,4
XII. Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar	101,4	123,1
XIII. Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar	100,8	103,0

VI. Uslubiy ma'lumotlar

2026-yil yanvaridan boshlab Iste'mol narxlar indeksining oylik hisob-kitobi 517 ta tovar va xizmat turiga (2025-yilda – 510 ta) asoslanadi, shundan 419 tasi tovar va 98 tasi xizmatlardir.

INI hisob-kitoblari (1) salmoq vaznlarini shakllantirishga xizmat qiladigan aholi xarajatlarining tuzilmasi to'g'risidagi ma'lumotlar (uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuv ma'lumotlari) va (2) iste'mol narxlarini o'zgarishlari to'g'risidagi ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy, geografik holatini aks ettirishini va iste'mol bozorining tovarlar va xizmatlar bilan to'yinganlik darajasini hisobga olgan holda tanlab olingan Nukus shahri, Toshkent shahri, viloyatlar markazlari va tanlanma asosda shaharlar va tumanlar markazlaridan to'planadi.

Tovarlar va xizmatlar narxlarini va tariflari kuzatuv turg'un savdo va xizmat ko'rsatish sohasi shahobchalari va ko'chma savdo (palatka, rastalar v.b.) obyektlarida tanlanma asosida o'tkaziladi.

Hisob-kitoblarda quyidagi manbalardan olingan narx o'zgarishi haqidagi ma'lumotlar qo'llaniladi:

(1) CAPI¹ texnologiyasiga asoslangan ma'lumotlar (chakana savdo do'konlariga tashrif buyurib narxlarni ro'yxatdan o'tkazish);

(2) ma'muriy tranzaksiya ma'lumotlari (soliq organlari ma'lumotlar bazasidan onlayn-kassa mashinalari chek ma'lumotlari);

(3) eStat² tizimi orqali xizmat ko'rsatuvchi provayderlardan va chakana sotuvchilardan olingan ma'lumotlar (API³ /Excel formatida);

(4) web scraping⁴ texnologiyasiga asoslangan va turli xil onlayn manbalar (veb-sayt ma'lumotlari) dan olingan narxlar;

(5) CATI⁵ texnologiyasiga asoslangan ma'lumotlar (telefon orqali so'rovnomalar).

Narxlarni yig'ish har oyning 1-sanasidan 25-sanasigacha bo'lgan davrda amalga oshiriladi. Narxlarni to'plashning har bir usuli va manbasi uchun alohida grafik belgilangan bo'lib, u xalqaro standartlar tavsiyalari asosida tayyorlangan va 2026-yil yanvar oyidan joriy etilgan yangilangan metodikada mustahkamlab qo'yilgan.

XVJ ekspertlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasiga modifikatsiyalangan arifmetik Yang formulasini joriy etish qisqa muddatli istiqbolda tavsiya etilgan.

Tahliliy maqsadlar va respublikadagi inflyatsion jarayonlarni kompleks baholash uchun 2026-yil yanvardan boshlab **geometrik Yang formulasining muqobil variantidan foydalanib, qo'shimcha narx indeksini shakllantirish boshlandi.** Ushbu hisob-kitoblarni natijalari doimo "Tahliliy maqsadlar uchun" degan belgi bilan e'lon qilib boriladi.

Modifikatsiyalangan arifmetik Yang formulasi asosida shakllangan INI iste'mol sektoridagi inflyatsiyaning asosiy ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Geometrik Yang formulasi bo'yicha hisoblangan INI esa tahlil maqsadlari uchun qo'shimcha ko'rsatkich sifatida qo'llaniladi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi mutaxassislari tomonidan o'rta muddatli istiqbolda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasiga geometrik Yang formulasini joriy etish tavsiya etilgan.

2026-yil yanvar oyidan kuchga kirgan metodologiyadagi o'zgarishlar **"O'zbekiston Respublikasida narxlar indekslarini shakllantirish metodologiyasidagi asosiy o'zgarishlar to'g'risida"gi press-reliz**da batafsil yoritilgan.

VII. Foydali havolalar

[Iste'mol narxlari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi Maqsadlar bo'yicha individual iste'mol tasniflagichi \(O'R MIIT – 2018\)](#)

[Iste'mol narxlari indeksi bo'yicha qo'llanma: konsepsiya va uslubiyat \(2020\)](#)

Chop etish uchun mas'ul:
Narxlar statistikasi boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent, Mustaqillik
shoh ko'chasi, 63
Kontaktlar: info@stat.uz
Tel: +99871 203-80-00 (1100, 1101)



¹ CAPI (Computer Assisted Personal Interviewing) – narxlar statistikasida bu ma'lumot to'plash usuli bo'lib, unda registratorlar savdo va xizmat ko'rsatish obyektlariga bevosita borib, narxlarni qog'oz anketa o'rniga planshet orqali qayd etadilar.

² O'zbekistonda statistik hisobotlarni elektron shaklda yig'ishga mo'ljallangan avtomatlashtirilgan axborot tizimi.

³ API (Application Programming Interface) – bu turli dasturlar o'zaro muloqot qilishi va ma'lumot almashishiga imkon beruvchi dasturiy interfeys, qoidalar, buyruqlar va vositalar majmuasidir.

⁴ Veb-resurs sahifalaridan ma'lumotlarni avtomatik ravishda qirqib olish texnologiyasi.

⁵ CATI (Computer Assisted Telephone Interviewing) – bu kompyuter yordamida telefon orqali intervyu o'tkazishga asoslangan ma'lumot to'plash usuli.